

**BUXORO OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AYOL
OLIMLARNING AKT SOHASIDAGI ILMIY VA INNOVATSION
FAOLLIGI**

Teshayeva Yulduz Hakim qizi

BuxDu tayanch doktoranti

Annotatsiya: maqolada Buxoro viloyatidagi oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va informatika fanlarining rivojlanishida ayol olimlar va pedagoglarning tutgan o'rni gender yondashuv asosida tahlil qilingan. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar sohasida ayollarning ilmiy-innovatsion faoliyati, o'quv platformalarini ishlab chiqish, startap loyihalarini tashkil etish kabi yo'nalishlarda faolligi ortib borayotgani misollar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: ayol olimalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, gender tengligi, Buxoro viloyati, oliy ta'lim, raqamli texnologiyalar, informatika fanlari, innovatsion faoliyat, IT-ta'lim, startap loyihalar, pedagogik salohiyat, robototexnika.

Zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan integratsiyalashuvi natijasida ta'lim sifati, ilmiy salohiyat va innovatsion faoliyat yuksalmoqda. Shu jihatdan, O'zbekistonning qadimiy ilmiy markazlaridan biri bo'lgan Buxoro viloyatida ham

oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari va informatika fanlarining rivoji alohida e'tiborga loyiq.

So'nggi yillarda Buxoro viloyatidagi oliy ta'lim muassasalarida ayol olimlar, muhandislar va pedagoglar axborot texnologiyalari va informatika fanlarining rivojida muhim o'rin tutmoqda. Ular ilmiy izlanishlar, o'quv-uslubiy faoliyat va yosh avlodni tarbiyalashda faol ishtirok etib, bu sohaning taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Masalan, 2022-yilda BuxDUda informatika faniga oid bo'limlarda e'lon qilingan maqolalarning 20–25 foizi ayol mualliflar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024- yilga kelib bu ko'rsatkich 45 foizga oshdi.

Buxoro viloyatidagi oliy ta'limda gender tenglik tamoyilini ta'minlash, ayniqsa IT yo'nalishida ayollarni ko'proq jalb qilish strategik maqsadga aylangan.

2024-yil holatiga ko'ra, Buxoro davlat universitetining Axborot texnologiyalari fakultetida tahsil olayotgan ayol talabalar ulushi 35–40% atrofida bo'lib, bu ko'rsatkich yildan yilga ortib bormoqda.

Buxoro davlat universiteti, Buxoro davlat texnika universiteti va boshqa ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari kafedralarida bir qancha PhD darajasiga ega ayol ilmiy xodimlar faoliyat yuritib kelyapti. Jumladan, Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasida dotsentlar va katta o'qituvchilar orasida ayollar ulushining ortib borayotgani kuzatilmoqda.

Xuddi shunday fidokor olim ayollarimizdan fizika-matematika fanlari nomzodi Sayidova Nazokat Sayfullayevna Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida ko'p yillardan beri dotsent lavozimida ishlab kelyapti.

Nazokat Sayidova 5 ta monografiya, 42 ta metodik qo'llanma, 160 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi. Google Scholar Citations ma'lumotlar bazasida tadqiqotlarining iqtiboslik darajasi 280, h-indeksi 9, i-10 9 ko'rsatkichiga ega.

O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining 8 ta mualliflik guvohnomasiga ega. OO'MTV tavsiyasi bilan nashr qilingan hammualliflikdagi 3 ta o'quv qo'llanma, shundan birtasi yakka mualliflik, 1 ta darslik yakka mualliflikda 2 ta elektron darsliklar, 22 ta uslubiy qo'llanma muallifi hisoblanadi.

Hozirda olimaning "Kompyuter grafikasi" darsligi butun respublika OTMlarining axborot kommunikatsion texnologiyalari turli ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun asosiy darslik sifatida o'rganilib kelinmoqda.

2024 yilda Buxoro davlat universiteti tomonidan e'lon qilingan "Scopus Awards Bukhara State University 2024" nomli tanlovga ishtirok etib, 23.100.000 (yigirma uch million yuz ming) so'mlik sertifikatni qo'lga kiritgan.

Dotsent yaratgan ilmiy maktabda IT sohasi o'rganildi, ayniqsa hozirgi zamon uchun eng dolzarb va qiziqarli soha bo'lgan dizaynerlik va grafika sohalarini o'zida mujassam etgan ma'lumotlar ombori tuzilib, mobil ilova hamda ephotoshop.uz platformaning elektron sayti yaratilishiga erishildi. N.Sayidova YouTube tarmog'ida – katta hajmdagi video fayllar to'plangan saytda hozirgi kunga qadar o'zining 13 ta video darslarini joylashtirib ta'lim-tarbiya sohasida o'zining muhim hissasini qo'shgan. Uning video darslaridan minglab kuzatuvchilar foydalanib kelishyapti.

Shunday ilmli olima ayollardan yana biri Bo'ronova Gulnora Yodgorovna hisoblanadi. U BuxDU Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida dotsent sifatida faoliyat yuritadi. 2023-yil 31-martda "Virtual ta'lim platformasi

asosida robototexnika to'garagi faoliyatini takomillashtirish metodikasi" mavzusida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Ilmiy resurslar tizimida uning nomidan ko'plab maqola, majmualar, metodik qo'llanmalar hamda Scopus indeksli maqolalari ham e'lon qilingan. Kafedradagi video darslar, metodik loyihalar va sertifikatlar orqali pedagogik salohiyati va innovatsion yondashuvi bilan tanilgan.

2025-yil, 11-fevral – "Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni" munosabati bilan Ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi asosida o'tkazilgan "Olima ayollar" amaliy loyihalar tanlovi g'oliblari taqdirlanishdi. Gulnora Bo'ronova ham "Robototexnikani o'rgatishga mo'ljallangan milliy o'quv kontenti va virtual ta'lim platformasini yaratish" loyihasi uchun 520 million so'mlik pul mukofoti sovrindori bo'ldi.

Ikkala olim ham ilm-fandagi ayol olimalar o'rnini mustahkamlashda namunali faoliyat yuritmoqda. Ularning muvaffaqiyatlari talabalar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilyapti.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, so'nggi yillarda Buxoro viloyatida oliy ta'limda IT va robototexnika yo'nalishlari sezilarli darajada rivojlanmoqda. O'quv dasturlari modernizatsiyasi, zamonaviy infratuzilma, elektron ta'lim va startap muhitining shakllanishi bunga misol. Ayniqsa, BuxDU va BTUdagi laboratoriyalar faoliyati, maktablarda robototexnika sinflarining ochilishi va IT Park orqali jamiyatga integratsiya bu yo'nalishlarning mavjudligini ko'rsatadi. Kelajakda strategik jihatdan tahlillarni ko'proq statistika bilan boyitish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bu rivojga kuchli turtki bo'ladi. Buxoro viloyatidagi oliy

ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari va informatika fanlarining taraqqiyotida ayol olimlar va ustozlarning tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega. Ularning ilmiy, pedagogik va targ'ibot sohasidagi mehnati tufayli yosh ayollar ham bu yo'nalishga tobora ko'proq qiziqish bildirmoqda. Raqamli davrda ayollarni IT sohasiga jalb qilish nafaqat ijtimoiy tenglik, balki iqtisodiy va innovatsion taraqqiyotning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ–4851-son qarori. Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimida: metodik tavsiyalar. — T.: 2021.
3. Sayidova N.S. Kompyuter grafikasi. — Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2023.
4. Bo'ronova G.Y. Virtual ta'lim platformasi asosida robototexnika to'garagi faoliyatini takomillashtirish metodikasi (PhD dissertatsiyasi). — Buxoro, 2023.
5. UNESCO. Gender Equality in Science, Technology and Innovation: Going beyond parity. — Paris: UNESCO Publishing, 2017.
6. Stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti: <https://stat.uz>.

7. Google Scholar Citations. Sayidova N.S. profil sahifasi: <https://scholar.google.com>.
8. Women in Tech Statistics: The Hard Truth of Gender Inequality in the IT Industry. – IDC Report, 2022.
9. Scopus.com — ilmiy maqolalar va iqtiboslik bazasi.
10. Buxoro davlat universiteti rasmiy veb-sayti: <https://buxdu.uz>.
11. IT Park Uzbekistan — IT va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazi: <https://it-park.uz>.